

## **TIL MILLATNING BUYUK BOYLIGI, BEBAHO HAZINASIDIR**

*Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani*

*11-maktab Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

*Valiyeva Xamidaxon Pazlidin qizi*

Sen mangusan, baqosan,  
Men esam – o‘tkinchi zot.  
Sen hamisha bahorsan,  
Men – lahzalik xotiro.  
Ona tilim, jon tilim.

1989-yil 21-oktyabrda “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ona tilimiz milliy o‘zligimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma’no va jozibadorligidan, mamlakatimizning chin ma’noda mustaqilligidan darak beradi. Shunday ekan ona tilimizning shundayin go‘zalligini, sofligini keyingi avlodlarga yetkazish bizning vazifamizdir Insonning qanday ma’naviyatga ega ekani uning tilida, chiroyli nutqida namoyon bo‘ladi. Til millatning buyuk boyligi, bebaho hazinasi, tunganmas mulkidir. Chunki millatning tarixi, uning madaniy, ma’naviy merosi, urf-odatlar va an’alari unda mujassam bo‘ladi. Shu sababli ona tilimizni asrab - avaylash, uni boyitishimiz va avlodlarga to‘liqligicha yetkazishimiz kerak.

Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g‘alabalari sharafiga o‘zbek tilida madhiyamiz kuylanayotgani har birimizning g‘ururimizga g‘urur qo‘shadi. 1989 yil 21 oktyabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. O‘zbek

tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so‘ng davlat hujjatlari o‘zbek tilida yuritiladi, gazeta va jurnallar o‘zbektilida chop etila boshlandi. 1993 yil 2 sentyabrda “Lotin tiliga asoslangan o‘zbek alifbosini tuzish to‘g‘risida” gi qonun qabul qilingandan so‘ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o‘rin egallash muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu sababli chet ellarda ham o‘zbek tiliga qiziquvchilar, uni o‘rganuvchilar soni ortib bordi.

Biz o‘z ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go‘zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. “Til yashasa, millat yashaydi”. Agar biz o‘z tilimizning ko‘rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog‘on bo‘ladi va birligimiz mustahkam bo‘ladi.

Til – millat ko‘zgusi, ma’naviyat sarchashmasidir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov bejizga ona tilimizni: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir” deya e’tirof qilmagan. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar.

Yozuvchi va shoirlarimiz tilimiz haqida ko‘plab purma’no hikmatli so‘zlarni aytganlar va tilni turlicha ta’riflaganlar. Abdulla Oripov o‘zbek tili yo‘qolsa, to‘tiga aylanib qolishini, Erkin Vohidov ona tilimiz o‘lmasligini bot-bot ta’kidlaydi. Rasul Hamzatov esa ona tilisi yo‘qolsa, hatto o‘limga ham rozi ekanligini qalamga oladi. Ona tilimiz hisoblanmish o‘zbek tilini maqtab, uni madh etib, hattoki shu mavzuda qasidalar yozib, qalam tebratgan shoir-u shoirlarimiz nihoyatda bisyor. Masalan, qalami o‘tkir shoir Rauf Parfining:

Hayhot, toptaganda arab-u mo‘g‘ul,

Hayotingning zanjirli yili.

Boshdan ne kechirding mardona o‘g‘il,

O‘zbek tili, o‘zbek tili, – deya aytilgan yuqoridagi she’rida yurtimizni ko‘chmanchilar istilo qilganda ham, garchi bosib olib, o‘z tili, mafkurasini o‘rnatishga harakat qilgan bo‘lsalar-da, o‘zbek millati o‘zining eng qimmatli boyligi, ya’ni ona tilisini

yo‘qotmaganligi aks etgan. Yoki shu voqealarning davomi sifatida Xurshid Davronning quyidagi she‘rini keltirishimiz mumkin:

Kelib ketdi necha dunyolar,

Kuldi hayot, yig‘ladi o‘lim.

Sen deb qurbon bo‘ldi bobolar,

Ular ketdi, sen qolding, tilim.

Shu voqealarni eslab, Muhammad Yusufning quyida yozgan she‘rini o‘qib, beixtiyor o‘yga toladi kishi:

Onam “erkam” deb quchganda tunlar yarim,

Erkim yo‘q deb zirqirardi bir joylarim.

Parovozni hansiratgan bug‘doylarim,

Oltinlarim, ma‘danlarim, ipaklarim,

Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Shoir keyingi misralarda o‘zbek tiliga va uning rivojiga benihoya katta hissa qo‘shgan “g‘azal mulkingning sultoni” Mir Alisher Navoiyning ona tilimizga bo‘lgan chuqur hurmat-ehtiromini quyidagicha qayd qilib o‘tadi:

Sen bo‘lmasang, nima bizga silliq she‘rlar,

Bu dunyoda tili yo‘qda dil yo‘q derlar.

Bahoying-ku berib ketgan Alisherlar,

Yuragimning to‘ridagi so‘lmas gulim,

Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Vatanimiz mustaqilligining ma‘naviy asoslarini mustahkamlash, xalqimiz, avvalo, yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda o‘zbek tilining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Allohga behisob shukrlar bo‘lsinki, o‘zbek tilining shon-shuhrati, obro‘si borgan sari yildan yilga oshib bormoqda. Sport, fan, madaniyat va san‘at sohasida O‘zbekiston yoshlarining sa‘y-harakatlari beqiyosdir. Yurt kelajagi bo‘lgan biz yosh avlod o‘z harakatlarimiz bilan o‘zbek tilini butun dunyo tan olishi, uning rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shishimiz lozim.

Ona tili - millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarining namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borligini ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning Vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali angelaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvida tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois, tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi. Turk dunyosining buyuk marifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek: "Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidir. Suvsiz daryo bo'lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo'lgan til, o'sha millat bilan yashaydi va bardavom bo'ladi. Ota-bobolarimiz qadimdan tilni asrab avaylashgan, rivojlantirishgan. Masalan, A.Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Lutfiy va boshqalar. O'zbek tilining rivoji uchun beqiyos hissa qo'shganlar. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilimiz bizning bebaho boyligimizdir. So'z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab davr - XV asrda tilimiz himoyasiga o'tlanib, turkiy til o'z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab berdi. O'zining "Xamsa" kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi. Hozirda ham shoirlarimiz o'zbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmoqdalar. Boisi buyuk adabiyoti bo'lgan xalqning buyuk tili ham bo'ladi. Insonning qanday ma'naviyatga ega ekani uning tilida, chiroyli nutqida namoyon bo'ladi. Til millatning buyuk boyligi, bebaho xazinasini, tunganmas mulkidir.

## ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Shayxislamov N. Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning asosiy yo  
TA'LIM FIDOYILARI nalishlari //Science and Education. - 2020. - T. 1. - №. 4.
2. Xakimova I. M., Sadirov A. A. Zamonaviy tilning yoritilishi //Science and  
Education. - 2020. - T. 1. -№. 4.
3. Adelya I. N., Islombek S. K., Axmedova M. M. Rol literature v formirovanii  
grajdanskogo prava //Science and Education. - 2020. - T. 1. - №. 4.
4. Ravshanova G. R. Kreativlik-shaxsning yaxlit tarzda rivojlanishi omili //Science  
and Education. - 2020. - T. 1. - №. 3.